



PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

Pernebayeva Jazira Tansikbayevna
Namazova Balxiya Mirzabek qizi
Gulmetova Karima

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani

Bo'stonliq tuman 1- son kasb hunar maktabi ishlab chiqarish ta'limi ustalari

Annotatsiya: *Bugun voyaga yetayotgan navqiron avlodni intellektual salohiyatli, zukko qilib tarbiyalash, ularga puxta bilim berish mutaxassislarining yuksak bilim darajasiga bevosita bog'liqdir. Ushbu maqolada professional ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish masalalari, maxsus fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *professional ta'lim, innovatsiya, maxsus fan, kreativlik, bilim, motivatsiya, kompetentlik, kasb, ko'nikma, video, mashg'ulot.*

Barchamizga ma'lumki, XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu esa ta'lim tizimida tub islohotlar qilishni talab etayapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarning moddiy texnik bazasi mustahkamlanib, ta'lim sifati yuqori bosqichga ko'tarilib borilayotgan bir vaqtda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash tizimi ham yo'lga qo'yildi.

Professional ta'lim muassasalari boshqaruv hamda pedagog kadrlarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq professional ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishning asosini tashkil etadi. Professional ta'lim tizimining maqsadi va talabi - professional ta'lim muassasalarida o'qigan yoshlar aniq ish o'rniga, o'z kasbi bo'yicha zarur bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi shartligidadir.

O'qitish jarayonining vazifasi ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlashni nazarda tutadi. Professional ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir jihati muhimki, kasb-hunar maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarning kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilish, ushbu jarayonni yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash lozim.

Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarini qo'llashning asosiy maqsadi o'quvchilarni dars jarayonida bilimlarni tez o'zlashtirib

olishlari, uni mustahkamlash va turg'unligini ta'minlashdan iborat. Shu sababli bugungi kunda kasb-hunar maktablarida o'quvchilarga imkon qadar zamonaviy kompyuter vositalari va pedagogik texnologiyalarning integratsiyasidan foydalanib o'quv jarayonini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus fanlarni zamonaviy o'qitish shakllaridan biri bu video mashg'ulotlardir. Video mashg'ulot - bu eng samarali mashg'ulot turi bo'lib, moddiy jihatdan ham juda qulay. Video mashg'ulotlarda o'quvchi o'quv materialini tez va qulay usulda, ya'ni ko'rish, eshitish va idrok etish orqali chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish hamda mustaqil ta'lim olish imkoniyati vujudga keladi.

Video mashg'ulotlarda amaliyotda ko'rsatish imkoni bo'lmagan vaziyatlarni ko'rish, texnologik jarayonini kuzatish imkoniyati mavjud bo'lib bunda maxsus ustaxonalar, jihoz va asbob-uskunalarga, maxsus jihozlangan xonalarga ehtiyoj bo'lmaydi. O'quv materiallarini disklarga va fleshkalarga ko'chirib olib mustaqil

o'rganish, uni tarqatish imkoniyatlari mavjud.

Hech kimga sir emaski, odamlarda ko'rish qobiliyati eshitish qobiliyatidan ustun turadi. Shuning uchun video mashg'ulotlar professional ta'limda vizual va eng samarali mashg'ulot shakli sanaladi.

Video mashg'ulotlarining afzalliklari:

- Amaliyot bilan aloqa: syujet aniq ish joylarida yuz bergan haqiqiy voqealarga asoslangan;
- materialning ko'rinishi va unga kirish imkoniyati. Video hayotga imkon qadar yaqin, uning yordami bilan ob'ektlar va jarayonlarni batafsil va harakatda ko'rsatish mumkin;
- o'z-o'zini rivojlantirish va takrorlash imkoniyati. Istalgan vaqtda o'quvchi videoni tomosha qilish orqali mavzuni mustaqil ravishda o'rganishi mumkin;
- guruh darslarida va yakka tartibda ko'p marotaba foydalanish imkoniyati;
- foydalanish qulayligi.

Yuqorida keltirilgan misollar va tahlillar asosida maxsus fanlarni o'qitishda innovatsiya ta'lim texnologiyalari va axborot texnologiyalaridan integrativ foydalanishga doir quyidagicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

- innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatishga tayyorlash orqali axborot holiga keltirish;
- innovatsion texnologiyalarnig joriy etilishi bo'yicha axborot tizimini yaratish;
- innovatsion texnologiyalar bo'yicha kompyuter tarmog'ida saytlar ochish va undan foydalanish ko'lamini kengaytirish va h.k.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, professional ta'lim O'zbekistondagi ta'lim tizimida muhim va alohida o'rinni egallaydigan tizim hisoblanadi. Professional ta'lim tizimida ta'lim olayotgan o'quvchilarning olayotgan bilimiga va kadr sifatida yetishib chiqishiga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Ularga xuddi oliy ta'lim muassasalari talabalari singari e'tiborni kuchaytirish hamda darslar sifatini oshirish lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T.: Fan. 2006.
2. Pedagogika nazariyasi (Didaktika) / Hasanboev J., To‘raqulov X.A. va b.; Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011.
3. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. T.: Iste‘dod, 2008.
4. Ma‘ruf Olimovich Muqimov. Professional ta‘lim – innovatsion ta‘lim tizimining asosi. Academic Research in Educational Sciences.
5. T. Abduxoliqov. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida ta‘lim sifati monitoringini tashkillashtirish ilmiy-pedagogik asoslari. Nomzodlik dissertatsiyasi. T.,2003.
6. T. Abduxoliqov. Kasb-hunar ta‘limida ta‘lim sifati monitoringi. -T.,2003.
7. T. Daujanova. Kasb-hunar ta‘lim muassasalarida tajriba sinov ishlari monitoringi. Kasb-hunar ta‘limi ilmiy-metodik jurnal. T., 2000.